



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **SIDNEY SHELDONNING “IF TOMORROW COMES” ASARIDA QAMOQXONA VA JINOYATGA OID IDIOMALAR HAMDA KOLLOKATSIYALAR, ULARNING O‘ZBEKCHA TARJIMASI VA TAHLILI**

**Ismoilova Maftuna Ismoil qizi**  
Qarshi davlat universiteti, magistrant

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Sidney Sheldonning “*If Tomorrow Comes*” romanida uchraydigan jinoyat va qamoqxona diskursiga oid idiomalar va kollokatsiyalar chuqur lingvistik tahlil qilinadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, frazeologik birliklar nafaqat tarjima nuqtayi nazaridan, balki statistik taqsimot, diskursiv funksiyalar va pragmatik yuklama asosida ham o‘rganiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kollokatsiyalar asosan ekvivalent tarjima orqali berilsa, idiomalar ko‘proq adaptatsiya va semantik transformatsiya yo‘li bilan tarjima qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** idioma, kollokatsiya, pragmatika, diskurs, tarjima strategiyasi, statistik tahlil.

## **ИДИОМЫ И КОЛЛОКАЦИИ, СВЯЗАННЫЕ С ТЮРЕМНОЙ ТЕМАТИКОЙ И ПРЕСТУПНОСТЬЮ, В РОМАНЕ СИДНИ ШЕЛДОНА «IF TOMORROW COMES», ИХ ПЕРЕВОД НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК И АНАЛИЗ**

**Исмоилова Мафтуна Исмоил кизи**  
Каршинский государственный университет, магистрант

### **Аннотация**

В статье проводится углублённый лингвистический анализ идиом и коллокаций, связанных с дискурсом преступности и тюремной тематикой, в романе Сидни Шелдона «*If Tomorrow Comes*». Научная новизна исследования заключается в том, что фразеологические единицы рассматриваются не только с точки зрения перевода, но и с учётом их статистического распределения, дискурсивных функций и прагматической нагрузки. Результаты показывают, что коллокации в основном передаются посредством эквивалентного перевода, тогда как идиомы чаще переводятся с использованием адаптации и семантической трансформации.

**Ключевые слова:** идиома, коллокация, прагматика, дискурс, переводческая стратегия, статистический анализ.

## **PRISON- AND CRIME-RELATED IDIOMS AND COLLOCATIONS IN SIDNEY SHELDON’S IF TOMORROW COMES: THEIR UZBEK TRANSLATION AND ANALYSIS**

**Ismoilova Maftuna Ismoil qizi**  
Karshi State University, Master’s Student

### **Abstract**

This article provides an in-depth linguistic analysis of idioms and collocations related to crime and prison discourse in Sidney Sheldon’s *If Tomorrow Comes*. The novelty of the study lies in examining phraseological units not only from a translation perspective but also in terms of their statistical distribution, discourse functions, and pragmatic load. The findings indicate that collocations are mainly translated through equivalence, whereas idioms are more often rendered through adaptation and semantic transformation.

**Keywords:** idiom, collocation, pragmatics, discourse, translation strategy, statistical analysis.

**Zamonaviy tarjimashunoslikda frazeologik birliklar, xususan, idiomalar va kollokatsiyalar badiiy matnning semantik hamda stilistik qatlamini shakllantiruvchi asosiy unsurlardan biri hisoblanadi.** Ular nafaqat ma'no yetkazadi, balki muallifning individual uslubi, davr ruhi hamda ijtimoiy-madaniy kontekstni ham aks ettiradi. Shu sababli ularni adekvat tarjima qilish masalasi tarjima nazariyasi va amaliyotida muhim muammolardan biri sifatida qaraladi.

Kriminal janrga oid asarlarda bu muammo yanada murakkablashadi. Chunki bunday matnlarda huquqiy terminologiya, norasmiy sleng, metaforik ifodalar va diskursiv stereotiplar o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanadi. Natijada tarjimon nafaqat til birliklarini, balki jinoyat diskursining ichki qonuniyatlarini ham chuqur anglashga majbur bo'ladi.

Sidney Sheldonning *If Tomorrow Comes* romani aynan shunday murakkab diskursga ega bo'lgan asarlardan biridir. Asarda bosh qahramon Tracy Whitney hayoti orqali firibgarlik, sud tizimi, qamoqxona muhiti va jinoyat dunyosining turli jihatlari tasvirlanadi. Ushbu jarayonda muallif keng miqyosda idiomalar va kollokatsiyalardan foydalanadi, bu esa matnni lingvistik tahlil qilish uchun boy material yaratadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, jinoyat va qamoqxona diskursiga oid frazeologik birliklar o'zbek tarjimashunosligida yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Ayniqsa, ularning statistik taqsimoti, tarjima strategiyalari va pragmatik funksiyalari kompleks yondashuv asosida kam tahlil qilingan.

Tadqiqotning maqsadi *If Tomorrow Comes* asarida uchraydigan jinoyat va qamoqxona leksikasiga oid idiomalar hamda kollokatsiyalarni aniqlash, ularning semantik va diskursiv xususiyatlarini tahlil qilish hamda o'zbek tiliga tarjima qilinish strategiyalarini ilmiy asosda baholashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari asardagi frazeologik birliklarni aniqlash va tasniflash, ularning kontekstual qo'llanishini o'rganish, tarjima usullarini qiyosiy tahlil qilish, statistik natijalar asosida umumiy qonuniyatlarni aniqlashdan iboratdir.

M. Baker nazariyasiga ko'ra, idiomalarni tarjima qilishda ekvivalentlik kam uchraydi va ko'pincha adaptatsiya qo'llanadi. P. Newmark esa semantik va kommunikativ tarjima o'rtasidagi farqni ta'kidlaydi. Mazkur nazariyalar asosida quyidagi gipoteza ilgari suriladi: jinoyat diskursida kollokatsiyalar ko'proq formal ekvivalent orqali, idiomalar esa adaptatsiya orqali tarjima qilinadi.

Mazkur tadqiqot davomida 50 ta frazeologik birlik tanlab olindi va ular 2 guruhga, ya'ni kollokatsiyalar (30 ta) hamda idiomalarga (20 ta) ajratilib, har biri kontekst asosida tahlil qilindi. Mazkur bo'limda tanlab olingan frazeologik birliklar kengroq kontekst, semantik yuklama va tarjima strategiyalari asosida chuqur tahlil etiladi. Har bir misol faqat tarjima bilan cheklanib qolmay, balki uning lingvistik xususiyati va diskursiv funksiyasi ham izohlanadi.

Quyidagi kollokatsiyalarni ko'rib chiqamiz.

**1. “She was accused of committing fraud.” – U firibgarlikda ayblandi.** Ushbu kollokatsiyani tahlil qiladigan bo'lsak, *commit fraud* kollokatsiyasi ingliz tilida standart huquqiy birlik hisoblanadi. Bu yerda *commit* fe'li jinoyat sodir etish bilan mustahkam bog'langan. O'zbek tilida ham *sodir etmoq* fe'li aynan shu semantik funksiyani bajaradi. Shu sababli bu tarjima to'liq ekvivalent hisoblanadi va semantik yo'qotish kuzatilmaydi.

**2. “He would serve a long sentence.” – U uzoq muddat jazo o'taydi.** *Serve a sentence* birikmasida *serve* fe'li aslida “xizmat qilmoq” ma'nosini bildirsa-da, kriminal diskursda u metaforik kengayishga uchragan. O'zbek tilida *jazo o'tamoq* shakli bilan adekvat berilgan. Bu holatda semantik moslik saqlangan, lekin leksik transformatsiya mavjud.

**3. “The police began an investigation.” – Politsiya tergovni boshladi.** *Begin an investigation* kollokatsiyasi rasmiy uslubga xos bo'lib, tarjimada ham shu rasmiylik saqlangan. Bu birlik diskursda voqea rivojining boshlanishini bildiradi.

**4. “He was found guilty by the court.” – Sud uni aybdor deb topdi.**

*Find guilty* kollokatsiyasi sud terminologiyasida keng qoʻllanadi. Oʻzbek tilida ham bu struktura mos keladi. Bu holatda formal ekvivalentlik kuzatiladi.

Kollokatsiyalar asosan standart huquqiy birliklar boʻlgani sababli ularning tarjimasida katta muammo yuzaga kelmaydi. Ular koʻpincha rasmiy uslubga tegishli, aniq semantik chegaraga ega boʻlib, tarjimada toʻgʻridan-toʻgʻri ekvivalent topadi. Natijada kollokatsiyalar tarjimasida asosiy strategiya **formal ekvivalentlik** hisoblanadi.

Quyidagi idiomalarni oʻrganib, tahlil qilib chiqamiz.

1. **“She had been set up.” – Uni tuzoqqa tushirishgan edi.** Bu idiomada *set up* feʼli koʻchma maʼnoda ishlatilgan boʻlib, kimnidir ataylab aybdor qilib koʻrsatish maʼnosini beradi. Oʻzbek tilida bu maʼno toʻgʻridan-toʻgʻri mavjud emas, shu sababli adaptatsiya orqali tarjima qilinadi. Bu yerda pragmatik yuklama saqlangan.

2. **“He took the rap for her.” – U uning aybini oʻz zimmasiga oldi.** *Take the rap* idiomasi jinoyat uchun javobgarlikni oʻz zimmasiga olishni bildiradi. Bu ibora soʻzma-soʻz tarjima qilinsa, tushunarsiz boʻladi. Shu sababli semantik transformatsiya qoʻllanadi.

3. **“She got away with it.” – U jazodan qutulib qoldi.** Bu idiomada harakatning natijasi — jazodan qochib ketish ifodalanadi. Tarjimada dinamik ekvivalentlik qoʻllanadi.

4. **“He was on the run.” – U qochib yurardi.** *On the run* idiomasi harakat va vaqt davomiyligini bildiradi. Oʻzbek tilida feʼl orqali ifodalanadi, bu esa struktur transformatsiyani koʻrsatadi.

5. **“She crossed the line.” – U chegaradan oshib ketdi.** Bu idiomada axloqiy yoki huquqiy chegarani buzish maʼnosi bor. Tarjimada metafora saqlangan.

Idiomalar boʻyicha umumiy tahlil shuni koʻrsatdiki, idiomalar tarjimasida quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

- toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima kam qoʻllanadi;
- kontekst asosiy rol oʻynaydi;
- koʻpincha adaptatsiya yoki transformatsiya talab qilinadi.

Mazkur tadqiqotda diskursiv yondashuv asosida aniqlanishicha, jinoyat va qamoqxona leksikasi faqat nominativ birlik sifatida emas, balki matnning semantik va pragmatik tuzilishini shakllantiruvchi muhim vosita sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu birliklar orqali muallif voqelikni realistik tarzda tasvirlash bilan birga, oʻquvchida muayyan emotsional va ijtimoiy munosabatni ham shakllantiradi.

Birinchidan, kriminal diskurs realizmni kuchaytirish funksiyasini bajaradi. Masalan, *serve a sentence, face trial, be under investigation* kabi kollokatsiyalar rasmiy-huquqiy registrga tegishli boʻlib, sud jarayonining autentik tasvirini yaratadi. Bu birliklarning tarjimada ham rasmiy ohangda berilishi matnning ishonchligini saqlab qoladi.

Ikkinchidan, idiomatik birliklar qahramonlarning psixologik holatini va ijtimoiy mavqeyini ochishda muhim rol oʻynaydi. Masalan, *set someone up* yoki *take the rap* kabi ifodalar orqali qahramonning adolatsizlik qurboni boʻlgani yoki boshqalar uchun javobgarlikni oʻz zimmasiga olgani ifodalanadi. Bu esa Tracy Whitney obrazining ichki ziddiyatlarini ochib beradi.

Uchinchidan, diskursiv jihatdan idiomalar va kollokatsiyalar ijtimoiy tanqid funksiyasini bajaradi. Asarda sud tizimi va jinoyat olamidagi adolatsizliklar aynan shu frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Masalan, *get away with it* iborasi orqali jinoyatchilarning jazodan qutulib qolishi tasvirlanadi, bu esa ijtimoiy tizimdagi nomutanosiblikni koʻrsatadi.

Toʻrtinchidan, ushbu birliklar matnda stilistik kontrast yaratadi. Rasmiy kollokatsiyalar va norasmiy idiomalar oʻzaro qarama-qarshi qoʻllanib, matnning dinamikligini oshiradi. Tarjimada bu kontrastni saqlash muhim, aks holda matnning stilistik boyligi kamayadi.

Umuman olganda, diskursiv tahlil shuni koʻrsatdiki, frazeologik birliklar matnda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- referensial (maʼno yetkazish);
- ekspressiv (emotsional taʼsir);

- stilistik (uslub yaratish);
- ijtimoiy-kritik (tanqidiy mazmun berish).

Olingan natijalar tarjimashunoslik nazariyalari bilan solishtirilganda muhim ilmiy xulosalarni beradi. Xususan, M. Baker tomonidan ilgari surilgan fikr, ya'ni idiomalar tarjimasida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent kam uchrashi, ushbu tadqiqot natijalari bilan to'liq tasdiqlanadi. Statistik tahlilga ko'ra, idiomalarning asosiy qismi adaptatsiya va semantik transformatsiya orqali tarjima qilingan.

P. Newmarkning semantik va kommunikativ tarjima haqidagi nazariyasi ham ushbu materialda o'z aksini topadi. Kollokatsiyalar ko'proq semantik tarjima orqali, ya'ni shakl va mazmun mosligini saqlagan holda berilgan bo'lsa, idiomalar kommunikativ tarjima asosida, ya'ni o'quvchiga tushunarli shaklda yetkazilgan.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari kriminal diskursning o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini ham ko'rsatadi. Kollokatsiyalar formulaviy xarakterga ega bo'lib, ularning tarjimasini nisbatan barqaror va standartdir. Idiomalar esa yuqori darajada kontekstga bog'liq bo'lib, tarjimada ijodkorlikni talab qiladi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandi: tarjimada faqat semantik moslik yetarli emas, balki pragmatik va stilistik moslik ham zarur. Masalan, norasmiy idiomani rasmiy shaklda tarjima qilish matnning emotsional ta'sirini kamaytirishi mumkin.

Shuningdek, statistik natijalar shuni ko'rsatadiki:

- kollokatsiyalar tarjimasida standartlashuv yuqori;
- idiomalar tarjimasida variativlik yuqori.

Bu esa tarjimonning qaror qabul qilish jarayonida kontekst va kommunikativ maqsad hal qiluvchi rol o'ynashini tasdiqlaydi. Natijada ushbu tadqiqot tarjimashunoslikda frazeologik birliklarni o'rganishda kompleks yondashuv, ya'ni lingvistik, statistik va diskursiv tahlilni birlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Natijalar Baker nazariyasini tasdiqlaydi, ya'ni idiomalarda adaptatsiya ustun, kollokatsiyalar esa standart tarzda tarjima qilinadi.

**Xulosa o'rnida shuni aytish joizki**, mazkur tadqiqot Sidney Sheldonning *If Tomorrow Comes* romanidagi jinoyat va qamoqxona diskursiga oid idiomalar hamda kollokatsiyalarni kompleks tarzda tahlil qilish orqali bir qator muhim ilmiy xulosalarga kelish imkonini berdi.

Birinchidan, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kollokatsiyalar va idiomalar tarjima jarayonida turlicha lingvistik xulq-atvor namoyon qiladi. Kollokatsiyalar asosan formulaviy va standart birliklar bo'lgani sababli, ularning tarjimasida formal ekvivalentlik ustunlik qiladi. Bu esa huquqiy va rasmiy diskursning barqaror tabiatini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, idiomalar esa yuqori darajada kontekstga bog'liq bo'lib, ularni tarjima qilishda ko'proq adaptatsiya, semantik transformatsiya va dinamik ekvivalentlik strategiyalari qo'llanilishi aniqlandi. Bu holat idiomalarning madaniy va pragmatik yuklamasi kuchli ekanini ko'rsatadi.

Uchinchidan, statistik tahlil natijalari frazeologik birliklar tarjimasida aniq tendensiyalar mavjudligini isbotladi. Xususan, kollokatsiyalarda ekvivalent tarjima yuqori foizni tashkil etgan bo'lsa, idiomalarda adaptatsiya ustunlik qilgani ilmiy gipotezaning tasdiqlanishiga olib keldi.

To'rtinchidan, diskursiv tahlil frazeologik birliklarning faqat leksik vosita emas, balki matnning umumiy semantik va stilistik tuzilishini shakllantiruvchi asosiy komponent ekanini ko'rsatdi. Ular orqali muallif realizm, emotsional ta'sir va ijtimoiy tanqidni ifodalaydi.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari tarjimashunoslik nazariyalari bilan uyg'un holda yangi amaliy dalillarni taqdim etdi. Xususan, Baker va Newmark nazariyalarining amaliy tasdig'i sifatida kriminal diskursda tarjima strategiyalarining farqlanishi aniqlandi.

Shuningdek, ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u o'zbek tarjimashunosligida jinoyat diskursiga oid frazeologik birliklarni tizimli va statistik yondashuv asosida o'rganishga hissa qo'shadi. Amaliy jihatdan esa bu natijalar tarjimonlar uchun metodik qo'llanma vazifasini bajarishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur maqola jinoyat va qamoqxona diskursiga oid idiomalar hamda kollokatsiyalarni o'rganishda kompleks yondashuvning samaradorligini ko'rsatadi va tarjimashunoslikda yangi ilmiy yo'nalishlar uchun asos yaratadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Danilenko V. P. Rus terminologiyasi: lingvistik tavsif tajribasi. — Moskva: Nauka, 1977. — 245 b.
2. Timofeyev P. P., Alekseyev M. N., Sofiano T. A. Inglizcha-ruscha geologik lug'at: taxminan 52 000 termin / tahrir ostida P. P. Timofeyev va M. N. Alekseyev. — Moskva: Rus tili, 1988. — 540 b.
3. Smirnitskiy A. L. Ingliz tili leksikologiyasi. — Moskva: M.V. Lomonosov nomidagi MDU Filologiya fakulteti, 1998. — B. 105.
4. Isaxodjayev B. A., Umarxodjayev M. U., Adilov A. A., Pirnazarov M. M., Alimov A. M. Geologiya atamalarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. — Toshkent: MRI, 2007. — 154 b.
5. Arakin V. D. Ingliz va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi. — Moskva, 1972. — 370 b.